

O`ZBEK TILIDA HOLAT FE'LLARINING LINGVOSTILISTIK XUSUSIYATLARI

Tilakova Sohibjamol

TerDU magistranti

Lingvistika: o`zbek tili

Annotatsiya: Mazkur maqolada, tilshunoslikning eng katta bo'limlaridan biri, morfologiyaning eng yirik so'z turkumlaridan fe'l, xususan holat, hissiy-idrok fe'llarining lingvostistik xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: his qilish, teginish, hissiy-idrok, aqliy idrok, ko'rish idroki, ong, axborot, tilshunos

KIRISH

Fe'l arabcha so'z bo'lib, "harakat" degan ma'noni anglatadi.

Fe'l asosiy so'z turkumlaridan biri bo'lib, o'z ma'nosи, grammatik shakllari va sintaktik vazifalari bilan boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi. Fe'llar harakat, holat, nutq, ko'rish, eshitish, fikrlash va boshqa jarayonlarni anglatadi. Fe'llar qanday jarayonni ifodalashiga ko'ra quydagi ma'noviy guruhlarga bo'linadi:

- a) nutqiy faoliyat fe'llari: gapirdi, so'zladi, bayon qildi, ming'irladi, do'ng'illadi.
- b) aqliy faoliyat fe'llari : o'yalamoq, fikrlamoq, tafakkur qilmoq, xayol surmoq, tasavvur qilmoq.
- d) jismoniy faoliyat fe'llari :chizmoq , yozmoq, yemoq , artmoq , bino qilmoq.
- e) holat fe'llari : titramoq , joydiramoq, xursand bo'lmoq kabi ma'noviy guruhlarga ajralgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Darsliklarda fe'llarning quydagi ma'noviy guruhlarifarqlangan [1]:

- a) yumush fe'llari : ishladi, mehnat qildi, ter to'kdi,
 - b) tafakkur fe'llari : o'yaldi, kashf qildi, o'qidi,
 - d) sezgi fe'llari : sezdi , his qildi,
 - e) ruhiy holat fe'llari : qayg'urdi , iztirob chekdi, xursand bo'ldi,
 - f) tabiiy holat fe'llari : eridi, muzladi, yetdi,
 - g) ishora fe'llari : imo qildi, labini burdi, ko'zini qisdi,
 - h) ko'rish fe'llari : qaradi , ko'rdi, boqdi , termuldi ,
 - i) nutq fe'llari : gapirdi , so'zladi , bayon qildi ,
- jismoniy holat fe'llari : og'ridi , isitma qildi, xastalandi.

Y.S.Maslov ta'kidlaganidek, fe'l vaqt davomida sodir bo'ladigan

belgining, harakatning grammatik ahamiyatini ifodalaydigan so'z turkumi bo'lib hisoblanadi. Harakatning grammatik ahamiyatini keng ma'noda tushunish mumkin. U nafaqat harakat va tom ma'nodagi faoliyatni ifodalaydi, balki holatni va ma'lum bir predmet yoki shaxsning mavjudligini ko'rsatadi [2].

Fe'Ining ma'noviy guruhlari tarkibida yana irsiy jarayon fe'llari ham mavjud. Bundayfe'llarni proff. R.R.Rasulov biologik holat fe'llari deb nomladi. Biz biologik holat fe'llarini irsiy jarayon fe'llari deb atashni lozim topdik. Chunki biologik holat ham jarayon hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Irsiy jarayon fe'llari keng ma'nodagi tirik, jonli organizmning hayoti, o'sishi, rivojlanishini kabilar bilan bog'lanadi. Ular tirik organizmda tabiiy, zaruriy sodir bo'luvchi "biologik" jarayonlarni tildagi (nutqdagi) ifodasi bo'lib keladi. Irsiy jarayon fe'llarining mazmun jihatida aks etuvchi irsiy hodisa – holatlar shaxs, hayvonva o'simliklarning xolat belgisi bo'ladi. "Biologik" holat fe'llari quyidagilar: keksaymoq, qarimoq, o'lmoq, suvsamoq, suvsiramoq, chanqamoq, ochiqmoq, yosharmoq, cho'llamoq, ulg'aymoq, qurimoq (so'lib o'sishdan to'xtamoq), sarg'aymoq (o'sha ma'noda), yetilmoq (pishmoq), qizarmoq (o'sha ma'noda), bo'rtmoq (ko'kara boshlamoq), ko'karmoq (o'sha ma'noda), pishmoq (yetilmoq), gullamoq (gul ochmoq), chirimoq, ko'klamoq, so'linqiramoq, qovjiramoq (qurib bujmaymoq), so'lmoq (doimiy o'sib turgan xolatini yo'qotmoq va suvi qochib qurishga boshlamoq).

O'zbek tilining izohli lug'atida, "irsiyat" va "jarayon" so'zlariga quydagicha ta'rif keltirilgan.

"Jarayon" – (arabcha oqim, borish, sodir bo'lish) harakat, voqeа – hodisaning borishi , rivoji , oqimi.

"Irsiyat" –tirik organizmlarning jismoniy va ruhiy xususiyatlarini saqlash va nasldan naslga o'tkazish, o'ziga o'xshash nasllami bunyod etish qobiliyatı ,shunday xususiyat.

Biz Abdulla Qodiriy romanlarida quyidagi irsiy jarayon fe'llari mavjudligini aniqladik: dunyo bilan vidolashmoq, o'lib bermoq,vafot etmoq, yashay boshladi,ko'kargan, yashar edi, o'sdi, ulg'aymoq, qizil tusga kirdi, qizartirgan, suvsamoq, qovjiramoq, chirimoq va hokazo.

O'zbek tili izohli lug'atida irsiy jarayon fe'llari quydagicha izohlangan. Ko'karmoq- O't-o'simlik yoki barglar bilan qoplanib, ko'k, yashil tusga kirmoq. Giyoh unmagan cho'llar mehnatkashlar qoni baravariga yam-yashil ko'kargan edi. A.Qodiriy." Mehrobdan chayon" O'lmoq- Hayoti tugamoq, yashashdan to'xtamoq, qazo qilmoq. Jonkeldi o'lib turgan ekan, qulog

qoqmay, xo'p, dedi. A.Qodiriy."O'tkan kunlar" O'g'rilar teshib, oldimga chiqqanlarida, men nima qilar edim Oh, otajon! Men ajalimdan besh kun burun o'lardim. A.Qodiriy " O'tkan kunlar" [4].

Vafot etmoq- o'lim, ajal o'lim. Solih maxdum otasining vafotida yigirma yoshli talaba edi. A.Qodiriy "Mehrobdan chayon". Vafot etmoq- o'lmoq, olamdan o'tmoq. Dunyoda o'z o'g'lining xasisligiga chidalmagan ona bo'ladimi, holbuki maxdumning onasi- Mohlar oyim o'g'lining bu qadar ixna va siqiqlig'ig'a toqat qilolmay noroziliq yuzasidan Marg'ilondag'l o'g'lining yoniga ko'chib ketib o'sha yerda vafot etdi.

A. Qodiriy "Mehrobdan chayon" Ulg'aymoq- 1 Balog'atga, voyaga yetmoq, katta bo'lmoq. Oftob oyimning haligi shubhasi ulg'aya bordi. A. Qodiriy "O'tkan kunlar" Chirimoq- Tabiiy tasir tufayli parchalanmoq; aynimoq, ishdan chiqmoq, yaroqsiz holga kelmoq. Chinor chirimas, archa qurimas. Maqol.

Tirik- O'limgan, hali yashab turgan; hayot, barhayot. Menim qanday fotiham bo'lsin, men hali tirikman. A.Qodiriy "Mehrobdan chayon"

O'smoq- Rivojlanib bo'yiga yoki uzunasiga o'zini qo'yamoq, cho'zilmoq, rivojlanmoq. Yosh chog'ida otasi o'lib qattiqchiliqdada o'sdi. A. Qodiriy "Mehrobdan chayon".

Holat fe'li. Inson tabiatiga xos jismoniy va ruhiy holat turli xususiyatga ega.Holatni to'rtga bo'lish mumkin:

- I. Ichki holat (ruhiy kechinma bilan bog'liq: eslamoq, yodlamoq,tubanlashmoq kabi);
- II. Tashqi holat (ichki holatning namoyon bo'lishi bilan bog'liq: hafabo'lmoq, shodlanmoq, esanqiramoq, dovdiramoq, g'azablanmoq);
- III. Jismoniy holat (inson tanasi bilan bog'liq: holsizlanmoq, kuymoq,kuchlanmoq, zaiflashmoq);
- IV. Ijtimoiy holat (jamiat bilan bog'liq: boyimq, kambag'alllashmoq,ko'tarilmoq, urilmoq, quvg'in bo'lmoq kabi).

Natijali faoliyat fe'li tizimi yasamoq, ko'rmoq, bunyod etmoq, hosil bo'lmoq, chizmoq, yozmoq, bino qilmoq, arralamoq, parchalamoq, sayqal bermoq, randalamoq, sindirmoq, yemoq, o'chirmoq, kabi birlikni o'z ichiga oladi.

Tafakkur fe'li sirasiga insонning fikrlash qobiliyati bilan bog'liq o'ylamoq, fikrlamoq, hayol surmoq, tafakkur qilmoq, o'yga botmoq, ko'z oldiga keltirmoq, bir qarorga kelmoq, xulosaga kelmoq kabi kiradi.[2].

Ushbu holat fe'llar bilan birgalikda tilda hissiy-idrokni ifoda etuvchi fe'llardir. Ushbu fe'llar ustida ilk o'zbek tilshunoslari o'z fikr-mulohazalarini yoritib o'tgan. Jumladan, A.Fitrat o'zining "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir

tajriba. Sarf" asarida shunday yozadi: —O'zingizni o'ylasangiz, hayvonlardan birini o'ylasangiz (otni), bizga u hayvon ustiga yerlashmoq uchun bo'lg'on tebranishingizni o'ylasangiz, uch ma'noni o'ylagan bo'lursiz. Bu uch ma'noni birlashtirib, bir-biriga bog'lab, o'zingizni otga minganizingizni o'ylaganda, miyangizda "o'y" tuqqandir. SHu o'yni bir kishiga bildirmaqchi bo'lg'och, "Men ot mindim" deb qo'yasizkim, bu aytqaniningiz bir "gap"dir. Ko'rildirkim, yuqoridagi o'nda uch ma'no bo'lg'ani kabi u o'yni bildirguchi "gap"da ham uch so'z bor: "Men ot mindim". Demak, so'z ma'no bildirgan tovushlar to'dasidir [3]. Boshqacha qilib aytganda, belgilar orqali inson ob'ektiv olamga borishini va aksincha ob'ektiv olamdan semantik predmetlar orqali belgilashtirish jarayoni, ya'ni sintaktik aloqa mavjud ekanligi ko'rindi. Sintaktik aloqa esa valentlik tufayli yuzaga keladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Bir necha irsiy jarayon fe'llari sinonimik qatorni hosil qiladi. Masalan: o'lmoq, vafot etmoq, o'lib bermoq, dunyo bilan vidolashmoq va hokazo. Bu sinonimlar orasida dunyo bilan vidolashmoq fe'li so'z birikmasi holida kelgan. Bunday fe'lli birikmalar faqat Abdulla Qodiriy romanlarida uchraydi va adibning so'z qo'llashda naqadar mahoratli ekanini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. R.Rasulov . O'zbek tili nazariy grammatikasi muammolari.Toshkent - 2019.
2. Murodova, F. (2021). Adabiyot darslarida kichik epik janrlarni xalqaro tadqiqot talablari asosida o'tish texnologiyasi (8-sinf darsligidagi Sh. Xolmirzayevning "ot egasi" hikoyasi asosida). Academic research in educational sciences, 2(4), 683-687.
3. Musayevich, S. A., & Temirovna, K. G. (2021). Linguoculturology in linguistics features of lingvokulturemas in the creativity of rauf parfi. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 39-42.
4. Muxtarova, S., & O'G'Li, H. U. A. (2022). Til ta'limida o'quvchilarning matnyaratish ko'nikmasini o'strish. Science and innovation, 1(B3), 533-538.
5. Yo'idoshev I., Sharipova O'. "Tilshunoslik asoslari" Toshkent 2007. B-7.